

O'SISH VA RIVOJLANISH FIZIOLOGIYASI

Usmonova Farangiz Kozimjon qizi

Xolmatova Sarvinoz Noibjon qizi

G'ulomova Zulfiya Akmaljon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti Aniq va Tabiiy fanlar fakulteti

Biologiya yo'nalishi 303 - guruh talabalari

Maqsudova Malika Xolmatovna

Andijon davlat pedagogika instituti

Jismoniy madaniyat kafedrası o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20083203>

Annotatsiya: Ushbu tesizda o'sish va rivojlanish haqida umumiy ma'lumotlar berilgan. Insonning yosh chegaralari va yoshga xos xususiyatlari keltirilgan.

Kalit so'z: o'sish, rivojlanish, klassifikatsiya, RFA, geteroxroniya, akseleratsiya.

Аннотация: В данной диссертации представлена общая информация о росте и развитии. Рассмотрены возрастные пределы развития человека и возрастные особенности.

Ключевые слова: рост, развитие, классификация, RFA, гетерохрония, ускорение.

Abstract: This thesis provides general information about growth and development. The age limits of a person and age-specific characteristics are presented.

Keywords: growth, development, classification, RFA, heterochrony, acceleration.

Hozirgi zamon fanida o'sish va rivojlanish davrlari va ularni yosh chegaralarining umumiy holda qabul qilingan klassifikatsiyasi yo'q. Shu sababli u yoki bu omillar tomonidan tavsiya qilingan o'sish va rivojlanishning davrlarga bo'linish tartibi haqida munozarali fikrlarga farqli o'laroq RFAning bolalar va o'smirlar fiziologiyasi instituti tomonidan yoshga oid davrlashlarni quyidagi bo'linishini taklif qilgan va bu taklif qilingan bosqichlar deyarlik barcha hamdo'stlik mamlakatlarida keng miqyosda foydalanilmoqda.

1. Yangi tug'ilgan – 1-10 kunlik;
2. Chaqaloqlik – 10 kundan –1 yoshgacha; -yilgacha.
3. Bolalikni oldi –1-3 yillar.
4. Birinchi bolalik – 4-7 yillar
5. Ikkinchi bolalik –8-12 yil o'g'il bolalar va 8-11 qiz bolalar uchun
6. O'smirlik yoshi –13-16 yil o'g'il bolalar va 12-15 qiz bolalar uchun
7. Yoshlik davri –17-21 yil yigitlar, 16-20 yil qizlar.
8. Balog'at yoshi, I davri 22-35 yil erkaklar, 22-35 yil ayollar:
Balog'at yoshi, II davri 36-60 yil erkaklar: 36-55 yil ayollar uchun;
9. Yoshi o'tgan –61-74 yil erkaklar, 56-74 yil ayollar;
10. Qarilik davri –75-90 yil;
11. Uzoq umr ko'ruvchilar –90 yil va undan yuqori.

Bolalarni to'g'ri tarbiyalash uchun ular organizmining o'sishi va rivojlanishi kabi asosiy xususiyatlarini bilish zarur, O'sish va rivojlanish barcha tirik organizmlar kabi odam organizmiga xos xususiyatdir. Organizmning har tomonlama o'sishi va rivojlanishi uning paydo bo'lgan vaqtdan boshlanadi. Bu ikki jarayon murakkab hisoblanib, bir butun va bir-biriga bog'langandir.

O'sish deganda tana hujayralarining ko'payishi natijasida tirik organizm o'lchamlarining ortishi, ya'ni bo'yning cho'zilishi, og'irlikning ortishi tushuniladi. Bola ma'lum yoshgacha

to'xtovsiz, ammo o'sish davrida ayrim tana qismlarining nomunosib o'sishi (bosh, oyoq, qo'l suyaklan, ko'krak qafasi va qorin bo'shligi ichki organlari) turh yoshda har xil jadallikda bo'lishi mumkin, shunga qaramasdan barcha to'qima va hujaylarda ya'ni organlarda o'sish bir vaqtda, ayollarda o'rtacha 18- 19 yoshgacha, yigitlarda 19-20 yoshgacha tugallanadi.

O'sish qatorida hujayrada ularning bajaradigan vazifasining ortishi jarayoni kuzatiladi. Bu rivojlanish jarayonidir. Rivojlanish deganda o'sayotgan organizm to'qima, hujayra va organlarining shakllanishi, ya'ni bola organizmi hujayralarining takomillashib, o'smirlik va yetuk yoshdagi odamlarga xos boigan bir muncha murakkab tizimlarga ega bo'lishiga aytiladi.

Bunga, voyaga yetgan davrdan boshlanadigan qarish jarayonlari ham kiradi va qoidaga binoan, organizmni qayta rivojlanishi boshlana. Rivojlanish jarayoni a'zolar va ularning tizimlari faoliyatini funksional differensiyalanishi va takomillanishida namoyon bo'ladi. Masalan, markaziy asab tizimining reflektor faohyatini ichki kortikal aloqalarni, yurak-tomir, ovqat hazm qilish, tayanch-harakatlanishi va boshqa tizmlarning murakkablashuvi va rivojlanishi hisobiga takomillashuvida bilinadi. O'sish va rivojlanish tirik materiyaning umumiy biologik xususiyatlari hisoblanadi, uzluksiz ilgarilovchi jarayon ko'rinishida bo'ladi. U yoki bu fiziologik tizimlarning tuzilishida yoki faoliyatida yoshga oid xususiyatlarining mavjudligi, bola organizmini alohida yoshga oid davrida to'laqonli rivojlanganligini ko'rsatmaydi. Aynan shunday o'ziga xos xususiyatlar majmui u yoki bu yosh davrini tavsiflaydi. Organizm o'sishi va rivojlanishida barcha etaplarni bolalik, o'smirlik, yoshlik, yetuklik davriarini bosib o'tadi. O'sish bu organizmning miqdor ko'rsatkichi rivojlanish esa sifat ko'rsatkichi bo'lib, bu ikki jarayon notekislik ya'ni geteroxroniya, uzluksizlik va akseleratsiya jarayonlari asosida yuzaga chiqadi.

Adabiyotlar, References, Литературы:

1. Biologiya (Umumiy o'rta ta'lim uchun darslik) – T. G'ofurov, A. Abdukarimov. Toshkent: O'qituvchi nashriyoti.
2. Odam va uning salomatligi – Sh. Qodirov va boshqalar. Toshkent.
3. Developmental Biology – Scott F. Gilbert.
4. Human Physiology – Dee Unglaub Silverthorn.
5. Biology – Neil A. Campbell va boshqalar.